O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUXORO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

200118. Buxoro viloyati, Buxoro shahri, I.Mo’minov ko’chasi 1-uy. Tel.:(365) 224-34-85, Faks: 223-05-95 e-mail: info@buxoro.uz, buxoro@exat.uz

2024 - yil 6 - iyun 268-2-0-Q/24 Buxoro viloyati hokimligi

Bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1326-sonli (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2010-yil, 17-son, 131-modda) va Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 29-iyundagi “Mahalliy budjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish zaxiralarini aniqlash ishlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 445-sonli O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 27-son, 614-modda) qaroriga muvofiq hamda viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi hamda viloyat soliq boshqarmasining bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining miqdorlarini belgilash bo‘yicha viloyat hokimligiga kiritgan qo‘shma taklifini inobatga olib

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-apreldagi “Dehqon bozorlari va savdo komplekslari faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1326-sonli qarorining 4-bandiga muvofiq viloyat hokimligiga hududiy moliya va soliq organlari bilan kelishilgan holda bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini har yili tasdiqlash vazifasi yuklatilganligi inobatga olinsin.

2. Viloyat hududidagi bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymatining miqdorlarini belgilash bo‘yicha viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining hamda viloyat soliq boshqarmasining qo‘shma taklifi ma’qullansin.

3. Mazkur qaror bilan:

bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘im miqdorlari 1-ilovaga;

bozorlar va savdo komplekslarida inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari 2-ilovaga;

bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlarni ijaraga berishda undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari 3-ilovaga;

viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari hududidagi umumiy foydalaniladigan obyektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxati va qiymati 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Viloyat soliq boshqarmasi (D.Yuldashev) viloyat bozorlar va savdo komplekslari uyushmasi (O‘.Xidirov) bilan birgalikda viloyatdagi barcha bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar, ijara va ko‘rsatiladigan xizmatlar to‘lovlarining to‘g‘ri va to‘liq undirilishi ustidan doimiy nazorat olib borsin.

5. Bozorlar va savdo komplekslari rahbarlari bozorlar va savdo komplekslarining ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlar va ijara to‘lovi miqdorlari, shuningdek ko‘rsatiladigan xizmatlar ro‘yxati hamda qiymatini o‘zida aks ettiruvchi ma’lumotlar oynasini bozorlar va savdo komplekslarining barcha kirish joylarida o‘rnatilishini ta’minlasinlar.

6. Viloyat hokimining 2022-yil 30-dekabrdagi “Bozorlar va savdo komplekslarida bir martalik yig‘imlar, ijara to‘lovi va ko‘rsatiladigan xizmatlar qiymati miqdorlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 644-2-0-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

7. Viloyat hokimligi apparati axborot xizmati (O.Jo‘rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (O.Shabanov), “Buxoronoma” va “Бухарский вестник” gazetalari tahririyati (Sh.Sulaymonov) mazkur qarorni viloyat hokimligining buxoro.uz rasmiy veb-sayti hamda viloyat televideniyesi va gazetalarda e’lon qilsin.

8. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

9. Mazkur qaror ijrosining nazorati viloyat hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (B.Axmedov) zimmasiga yuklatilsin.

Buxoro viloyati hokimi **B.K.Zaripov**

Buxoro viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
268-2-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati tomonidan undirib olinadigan bir martalik yig‘imlarning miqdorlari

so‘m

T/r	Mahsulot turi	O‘lchov birligi	Buxoro shahar va G‘ijduvon tumanida	Kogon shahar	Viloyatning qolgan tumanlarida
A	*1*	*2*	*3*	*4*	*5*
I.	**Mahsulotlarni savdo o‘rinlarida sotish:**				
1.1.	*Mevalar: Ho‘l mevalar:* *olma, anor, nok,, shaftoli, anjir, olxo‘ri, gilos, ko‘k va qizil sulton, o‘rik, uzum, olcha, qulupnay, malina va h..k..*	1 o‘rin/ kunga	6500	5500	4500
	sitrus va tropik mevalar (apelsin, mandarin, limon, banan, ananas, kivi va h..k..) hamda chet eldan keltirilgan boshqa ho‘l mevalar	1 o‘rin/ kunga	13000	11000	9000
	Quruq mevalar, yong‘oqlar: turshak, bargak, mayiz, yong‘oq, yeryong‘oq, bodom, pistalar, sho‘rdanak va h..k..	1 o‘rin/ kunga	13000	11000	9000
1.2.	Sabzavotlar: kartoshka, piyoz, karam, sabzi, sarimsoq, lavlagi, sholg‘om, bulg‘or qalampiri, baqlajon, patisson, pomidor, bodring (shu jumladan, issiqxonada yetishtirilgan pomidor va bodring) va h..k.. hamda pishirilgan jo‘xori	1 o‘rin/ kunga	6500	5500	4500
1.3.	Poliz mahsulotlari: handalak,, qovun , tarvuz, qovoq (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/ kunga	13000	11000	9000
1.4.	Don mahsulotlari: guruch, kungaboqar, yormalar (krupa), bug‘doy, suli, arpa va h..k.	1 o‘rin/ kunga	10000	9000	7500
1.5.	Dukkakli mahsulotlar: mosh, loviya, no‘xat va h.k..	1 o‘rin/ kunga	9000	7500	4500

1.6.	Sut mahsulotlari: sut, qatiq, qaymoq, smetana, uy pishlog‘i, suzma va h..k.	1 o‘rin/ kunga	6500	5500	4500
1.7.	Tuzlamalar: karam, bodring, pomidor va h.k.	1 o‘rin/ kunga	7500	6500	5500
1.8.	Ziravor va dorivorlar (zira, murch, qalampir va h.k) hamda asal	1 o‘rin/ kunga	7500	6500	5500
1.9.	Ko‘katlar (shu jumladan isssikxonada yetishtirilganlar)	1 o‘rin/ kunga	4500	3500	3500
1.10.	Tuxum	1 o‘rin/ kunga	7500	6500	4500
1.11.	Gullar va ko‘chatlar (6 kv.metrgacha)	1 o‘rin/ kunga	6500	5500	4500
1.12.	Non mahsulotlari: (obi non, patir va h.k.)	1 o‘rin/ kunga	7500	5500	4500
1.13.	Uyda tayyorlangan konservalangan mahsulotlar, pazandalik mahsulotlari va uy sharoitida tayyorlangan qandolatchilik mahsulotlari	1 o‘rin/ kunga	8500	7500	6500
1.14.	Sanoat yo‘li bilan ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari va salqin ichimliklar	1 o‘rin/ kunga	9500	8500	8500
1.15.	Milliy taomlar	1 o‘rin/ kunga	13000	11000	9000
1.16.	Polietilen va qog‘oz paketlar, savatlar va posilka qutilari	1 o‘rin/ kunga	7500	6500	4500
1.17.	Supurgi	1 o‘rin/ kunga	6500	5500	4500
1.18.	Tirik baliq	1 o‘rin/ kunga	13000	11000	7500
1.19.	Xalq ijodkorligi, xalq hunarmandchiligi va kosibchilik tovarlari (6 kv metrgacha)	1 o‘rin/ kunga	4500	3500	3500
2.	Go‘sht mahsulotlari: mol, qo‘y, cho‘chqa, parranda go‘shti, jigar, dumba va h.k.	1 o‘rin/ kunga	18000	17000	16000
2.1.	Tayyor pishgan go‘shtli mahsulotlar: (qazi, til, yangilik, ruletlar, kalbasalar va h.k.)	1 o‘rin/ kunga	21000	18000	17000
3.	Mahsulotlarni avtomashinalardan sotish:		0	0	0
	yengil avtomashinalardan	1 mashina	10000	9000	9000
	yuk avtomashinalardan	1 mashina	19000	15000	14000
	tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan	1 mashina	20000	17000	15000
	mahsulotlarni yerdan sotish (savdo rastalaridan tashqarida, maxsus ajratilgan joylarda) (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/kunga	12000	10000	9000

4.	Uy hayvonlari uchun yem-ozuqalar (har bir tirkama yoki yuk avtomashinasi uchun): shrot, sheluxa, kombikorma, pichan, somon, guruch va makkajo‘xori poyasi va h.k.	1 mashina	9500	8500	7500
5.	Kurilish materiallarini sotish :				
5.1.	Bozorlar va savdo komplekslari tomonidan maxsus ajratilgan joylarda og‘ir va katta o‘lchamdagi qurilish materiallarini sotish :				
	6 kv.metrgacha	1 o‘rin/ kunga	9500	8500	8500
	6 kv.metrdan - 15 kv metrgacha	1 o‘rin/ kunga	11000	10000	10000
	15 kv.metrdan - 30 kv.metrgacha	1 o‘rin/ kunga	15000	13000	11000
	30 kv.metrdan oshgan xar bir kv.metriga	1 kunga (so‘m)	1000	1000	1000
5.2.	Kichik o‘lchamdagi qurilish materiallari (mayda o‘lchamli), santexnika, yoritish uskunalarini (lyustra, svetilniklar va h.k.) sotish (6 kv. metrgacha)	1 o‘rin/ kunga	6500	5500	4000
6.	Ilgari foydalanishda bo‘lgan buyumlar va ehtiyot qismlarni sotish :				
	Avtomobillar uchun ehtiyot qismlar	1 o‘rin/ kunga	9500	8500	8500
	Uy-ro‘zgor jihoz buyumlari va kiyim-kechaklar	1 o‘rin/ kunga	6500	5500	4500
7.	Avtotransport vositalarini sotish :				
	Yengil avtomashinalar va mikroavtobuslar	1 dona	35000	29000	29000
	Yuk avtomashinalari, avtobuslar, traktorlar va boshqa yuk ko‘taruvchi transport vositalari	1 dona	35000	29000	29000
	motosikl, motorollyor va mopedlar	1 dona	11000	8500	8500
	velosipedlar	1 dona	6500	5500	4500
8.	Mol bozorga olib kiriladigan har bir chorva mollari uchun				
8.1.	Ot, toy, tuya	1 bosh	18000	16000	18000
	Bo‘talok, eshak	1 bosh	10000	9000	10000
8.2.	Yirik shoxli qoramol :				
	Yirik shoxli qoramol (shu jumladan, sigir buzog‘i bilan)	1 bosh	20000	18000	20000
	Buzoq	1 bosh	13000	11000	13000
8.3.	Mayda shoxli qoramol :				
	qo‘y, echki (qo‘y qo‘zisi bilan, echki ulogi bilan va x.k)	1 bosh	13000	11000	13000

	qo‘zi, uloq	1 bosh	7500	6500	6500
8.4.	Cho‘chqalar, cho‘chqa bolalari	1 bosh	9000	8000	9000
9.	Uy parrandalari : kurka, tovuk, o‘rdak, g‘oz	1 bosh	2000	2000	2000
	kurka, tovuq, o‘rdak, g‘oz jo‘jalari	10 bosh	3000	3000	3000
10.	Itlar va mushuklar	1 o‘rin/ kunga	8000	7000	4000
11.	Manzarali qushlar va baliqlar	1 o‘rin/ kunga	8000	7000	4000
12.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar uchun ozuqalar hamda tegishli aksesuarlar va buyumlar	1 o‘rin/ kunga	4500	3000	3000
13.	Itlar, mushuklar, manzarali qushlar va baliqlar, shuningdek ularning ozuqalari va tegishli aksesuarlar va buyumlar, bir joyda	1 o‘rin/ kunga	9000	7500	4500
14.	Poyabzal ta’mirlash xizmati	1 o‘rin/ kunga	4500	3000	3000

Izoh:

1. Qishloq ho‘jaligi mahsulotlari va halq iste’moli mollari bilan savdo qilinganda, bir joy (savdo o‘rni) o‘lchami 1-1,2 pogon metr deb belgilanadi va shu o‘lchamdan ortiq o‘rin uchun qo‘shimcha ravishda xar bir savdo o‘rni uchun belgilangan to‘lov miqdorida joy xaqi undiriladi.

2. Qishloq ho‘jaligi mahsulotlari va xalq iste’moli mollari aralash holda sotilganda, to‘lov sotiladigan mahsulot turlari bo‘yicha belgilangan eng yuqori stavka bo‘yicha undiriladi.

Buxoro viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
268-2-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Bozorlar va savdo komplekslarida inventarlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari

so‘m

T/r	Mahsulot turi	O‘lchov birligi	Buxoro shahar va G‘ijduvon tumanida	Kogon shahar	Viloyatning qolgan tumanlarida
A	*1*	*2*	*3*	*4*	*5*
1.	**Inventarlarni ijaraga berish:**				
1.1.	**Tarozilar**	1 kunga	3500	3500	2000
1.2.	**Katta yuk tortish tarozilari uchun**		0	0	0
	150 kg.gacha	1 kunga	4500	3500	3500
	150 kg.dan 1500 kg.gacha	1 kunga			
1.3.	**Savdo jihozlari uchun (bolta, taxtakach, pichoq, o‘rindiq, voronka, patnis, savat va h.k.) (butun to‘plam uchun bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)**	1 kunga	3500	3500	2000
1.4.	**Maxsus ust-bosh kiyimlar uchun (xalat, etak, yenglik) (butun to‘plam uchun bunda to‘plam savdo faoliyati turi zaruratidan kelib chiqqan holda aniqlanadi)**	1 kunga	1000	1000	1000
1.5.	**Mahsulotlar uchun brezent berish**	1 kunga	4500	3500	2000
1.6.	**Aravachalar uchun**	1 kunga	6500	5500	3500
1.7.	Reklama joylashtirishga ajratilgan yer maydonidan foydalanganligi uchun (1 kv.metr)	1 kunga	3500	2100	2100
2.	**Ko‘rsatiladigan xizmat turlari:**				
2.1.	**Qishloq xo‘jalik va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash:**				
	sovutkichlarda (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	5500	4500	4500

	omborxonalarda, saqlash kameralarida (har bir yashik, qop va h.k. uchun)	1 kunga	4500	4500	4500
	bozor hududidagi rastalarda va ochiq joylarda (savdo o‘rni hisobidan)	1 kunga	5500	4500	4500
2.2.	**Buyumlarni omborlarda saqlash (bir 50x50x100 o‘lchamdagi joy uchun)**	1 kunga	4500	3500	3500
2.3.	**Mahsulotlarni tarozida tortish:**				
	katta yuk tarozida	1 marta tortish	2500	2500	2500
	yirik va mayda shoxli qoramolni tortish	1 marta tortish	4500	3500	3500
2.4.	**Avtotarozilardan foydalanish:**				
	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnadan ortiq bo‘lgan tirkamali, yarim tirkamali yuk avtomashinalari va avtopoyezdlardan:				
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	6500	5500	4500
	yuksiz	1 marta o‘lchash	4500	4500	4500
	yuk ko‘tarish quvvati 5 tonnagacha bo‘lgan tirkamali va yarim tirkamali yuk avtomashinalaridan:				
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	4500	3500	3500
	yuksiz	1 marta o‘lchash	3500	3500	2000
	yengil avtomashinalardan:				
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	3500	3500	2500
	yuksiz	1 marta o‘lchash	2500	2500	2500
	tirkamali yengil avtomashinalardan:				
	yuk bilan	1 marta o‘lchash	4500	3500	3500
	yuksiz	1 marta o‘lchash	3500	3500	2500
2.5.	**Mehmonxona xizmatidan foydalanish (1 ta joy uchun)**	1 kunga	10000	8000	8000
2.6.	**Avtotransport vositalarini vaqtinchalik saqlash uchun:**				
	yengil avtomashinalar uchun	1 soatga	3000	2000	2000
	yuk avtomashinalari uchun	1 soatga	3000	3000	2000
2.7.	**Hojatxona xizmatidan foydalanish**	1 marta	2000	1000	1000
2.8.	**Telefondan foydalanish**	1 minutga	1000	1000	1000

2.9.	**Radiouzel orqali e’lon berish**	3 marta takror	1000	1000	1000
3.	**Bozorlar va savdo komplekslari xududida kiruvchi avtotransport vositalaridan undiriladigan to‘lovlar:**				
3.1.	**Transport vositalrining yuk ortish va tushirish uchun bozorlar va savdo komplekslari xududiga kirishi (qishloq ho‘jalik mahsulotlarini tushirish uchun kirgan avtotransport vositalari hamda mijozlar bundan mustasno)**				
	yengil avtomobillar uchun	1 marta kirish	6500	4500	4500
	yuk avtomobillari uchun	1 marta kirish	11500	8500	7500
	motoroller uchun	1 marta kirish	4000	3000	3000
	Ot(eshak) arava	1 marta kirish	3000	3000	2000

Buxoro viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
268-2-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

Bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlarni ijaraga berish va ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun undiriladigan to‘lovlarning miqdorlari

so‘m

T/r	To‘lov turlari	O‘lchov birligi (oylik to‘lov)	Buxoro shahar va G‘ijduvon tumanida	Kogon shahar	G‘ijduvon tuman Xo‘jai Jahon savdo kompleksi	Viloyatning qolgan tumanlarida
A	*1*	*2*	*3*	*4*	*5*	*6*
1.	**Bozorlar va savdo komplekslari balansidagi bino, inshoot va boshqa mol-mulkdan foydalanganlik uchun ijara to‘lovi :**					
	Nooziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv. metr uchun	32 000	27 000	34 000	19 000
	Oziq-ovqat mahsulotlari sotish	1 kv. metr uchun	30 000	26 000	32 000	19 000
	Umumiy ovqatlanish	1 kv. metr uchun	31 000	27 000	33 000	19 000
	Maishiy xizmat ko‘rsatish	1 kv. metr uchun	15 000	13 000	16 000	12 000
	Boshqa turlar (ombor, ofis, dorixona, paynet va h.k.)	1 kv. metr uchun	14 000	13 000	15 000	10 000

Izoh: 2-chi va undan yuqori qavatlar va yertuladagi joylashgan savdo va xizmat ko‘rsatish ob’yektlaridan mahsulot va xizmat turlari bo‘yicha ushbu ilovaning 1-bandida belgilangan yig‘imlar miqdorining 50 foizi miqdorida undiriladi. Agar xaftada bir va ikki kun bozor bo‘ladigan bozorlarda (tuman markazida joylashgan kundalik bozorlar bundan mustasno) ushbu ilovaning 1-bandida belgilangan yig‘imlar miqdorining 25 foizi miqdorida undiriladi.

Buxoro viloyat hokimining
2024-yil 6-iyundagi
268-2-0-Q/24-son qaroriga
4-ilova

Viloyatdagi bozorlar va savdo komplekslari hududidagi umumiy foydalaniladigan ob’yektlarni saqlash bo‘yicha ko‘rsatiladigan majburiy xizmatlar ro‘yxati va qiymati

so‘m

T\r	Xizmatlar (1 kv.m./oyiga)	O‘lchov birligi	Buxoro shahar va G‘ijduvon tumanida	Kogon shaharda	G‘ijduvon tuman Xo‘jai Jahon savdo kompleksi	Gazli shaharcha	Viloyatning qolgan tumanlarida
A	*1*	*2*	3	4	5	6	7
1.	Bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlarning kirish va chiqish joylaridagi asfaltlangan va bruschatka yotqizilgan yo‘llar (yo‘laklar, trotuarlar), bozorning sxematik tarxi va boshqa ma’lumotlar (manzil va aloqa bog‘lash telefonlari, banner, shiorlar, yo‘l ko‘rsatish belgilari, reklama, e’lonlar)	1 kv metr uchun	1100	1100	2750	440	880
2.	Yer osti va yer usti kanalizatsiya lotoklari (xojatxona xarajatlari va lotoklarni ta’mirlash)	1 kv metr uchun	550	550	1650	220	550
3.	Ichki va tashqi yoritish tarmoqlari va inshootlari (bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlarning hududini yoritish hamda yoritish tizimini doimiy ishlashini ta’minlash va yangilab borish)	1 kv metr uchun	770	770	1650	330	770
4.	Ichimlik suvining sanitar-texnik bo‘g‘inlari (ichimlik suvini iste’molchiga yetkazish)	1 kv metr uchun	1540	1430	2200	550	1430
5.	Umumiy hududni qo‘riqlash va tozalash (bozor hududida jamoat tartibi va sokinlikni saqlash umumiy foydalanish joylarini toza saqlash hamda dezinfeksiya qilish)	1 kv metr uchun	1540	1100	3850	550	1100
6.	Maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarining chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish (farroshlik xizmatlari bozor hududidagi har xil darajali yo‘llarda to‘siqsiz yurish va o‘tish imkoniyatini (qordan tozalash, muzni parchalash, qum sepish va shu kabilarni) ta’minlash, hudud bo‘ylab maishiy chiqindilar uchun maxsus yashik va qutilar o‘rnatish, maishiy chiqindilarning bozor hududidan o‘z vaqtida olib chiqilishini ta’minlash).	1 kv metr uchun	4950	3850	5500	1980	4070
7.	Tashqi muhandislik-kommunikatsiya inshootlari (muhandislik inshootlarining zarur darajada ishlashini ta’minlash, tashqi to‘siq, bino va inshootlar, yo‘llar, muhandislik tarmoqlari va inshootlarining joriy va mukammal ta’mirlanishini amalga oshirish hamda obodonlashtirish)	1 kv metr uchun	3550	3200	5400	1430	3200
Jami		**xxx**	**14000**	**12000**	**23000**	**5500**	**12000**

* Ushbu xizmatlar bozorlar va savdo komplekslari hududidagi bino va inshootlar mulkdorlariga ko‘rsatiladi hamda ular uchun kadastr hujjatlarida ko‘rsatilgan egallagan yer maydonlaridan kelib chiqib, bozorlar va savdo komplekslari ma’muriyati bilan bino va inshootlar mulkdorlari o‘rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq haq to‘lanadi. Bunda maishiy va meva-sabzavot mahsulotlarning chiqindilarini yig‘ish va olib chiqish xizmatlari uchun bino va inshootlar mulkdorlari tomonidan mazkur turdagi xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlarga qo‘shimcha to‘lov amalga oshirilmaydi.